

V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 25 550 598,6 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi 2 523 881,9 mln. so'm yoki 11,0 foizga oshdi.

2021-yil yanvar- noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	mln. so'm	
	<i>Foyda, zarar</i> (+, -)	<i>O'sish sur'ati,</i> <i>% da</i>
Jami	25 550 598,6	111,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	308,6	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	25 366 693,3	110,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	169 940,2	3,0 m.
Qurilish	2 803,0	150,5
Savdo	556,9	13,9
Tashish va saqlash	7 170,8	-
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-2 480,7	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1 664,8	163,3
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-391,3	-
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	89,6	115,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5,0	104,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	44,0	2,4 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 194,4	2,1 m.

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 25 366 693,3 mln. so'mga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

– 169 940,2 mln. so‘mga, tashish va saqlash - 7 170,8 mln. so‘mga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga – 4 194,4 mln. so‘mga, qurilish korxonalariga –2 803,0 mln.so‘mga, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar – 1 664,8 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi suv bilan ta‘minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga minus 2 480,7 mln.so‘mga, Professional, ilmiy va texnik faoliyat 391,3 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

2021-yilning yanvar-noyabr oylarini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘shishi “Navoiy KMK” DK (23 685 006,5 mln. so‘m), “O‘zkimyosanoat” AJ (751 600,0 mln. so‘m), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ (190 870,1 mln. so‘m), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi (10 154,7 mln. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalariga to‘g‘ri keldi.

2021-yil yanvar- noyabr oylarida foydaning o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
“Navoiy KMK” DK	23 685 006,5	110,7
“O‘zkimyosanoat” AJ	751 600,0	12,2 m.
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	190 870,1	9,1 m.
“O‘zcharmsanoat” uyushmasi	26 148,3	138,8
“O‘zdonmahsulot” AK	10 154,7	2,9 m.
“O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi	967,1	127,2 m.

Foydaning pasayishi O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi– 569 187,2 mln. so‘m, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi – 309 382,3 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 282,4 mln. so‘m, “Dori-Darmon” aksiyadorlik kompaniyasi – 28,8 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi– 21,6 mln. so‘m, “Hududgazta‘minot” aksiyadorlik jamiyati – 19,3 mln. so‘mga yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

2021-yil yanvar- noyabr oylarida foydaning pasayishi yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar


	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	22 007,3	-
“O‘zbekneftgaz” AJ	9 650,0	-
O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	2 442,3	-
“O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati	109,8	-

2021-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

mln. so'm

	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	25 550 598,6	111,0
Navoiy sh.	24 729 479,7	111,5
Zarafshon sh.	-262,0	-
Karmana t.	775 979,4	94,2
Konimex t.	910,9	92,0
Qiziltepa t.	6 372,0	98,1
Navbahor t.	10 969,8	138,3
Nurota t.	308,6	-
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	26 840,2	139,0

2021-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari (2020-yil yanvar- noyabrga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 24 729 479,7 mln. so‘m (jami foydaning 96,8 foiz), Karmana tumani 775 979,4 mln. so‘m (jami foydaning 3,0 foiz), Xatirchi tumani 26 840, 2 mln. so‘m (jami foydaning 0,1 foiz), Navbahor tumani 10 969,8 mln. so‘m (jami foydaning 0,04 foiz)ga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2021-yilning yanvar- noyabr oylarida 9 ta korxonalar 35 105,3 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, “O‘zpxatasanoat” AJ vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021-yil yanvar- noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar so‘mmasi</i>	
		<i>mln. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	9	35 105,3	100,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1	22 007,3	62,7
Ulgurji va chakana savdo	1	9 650,0	27,5
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	2	2 502,2	7,1
Tashish va saqlash	3	507,3	1,4
Boshqa turdagi xizmatlar	2	438,5	1,3

2021-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
Jami	9	100,0	35 105,3
Navoiy shahar	6	98,9	34 704,2
Zarafshon shahar	2	1,1	397,5
Karmana tumani	1	-	3,6

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾



2021-yil 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 7 435 148,8 mln. soʻmni tashkil qildi, shundan muddati oʻtgan – 161 645,0 mln. soʻm yoki jami qarzdorlikning 2,2 foizi.

Muddati oʻtgan debitor qarzdorlik 2020-yil 1-dekabr nisbatan solishtirganimizda 0,5 foizga oshgan boʻlsa, jami debitor qarzdorlik oʻtgan yilga nisbatan 24,1 foizga oshgan.

Hududlar boʻyicha koʻrilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 4 792 939,4 mln. soʻm (viloyat boʻyicha jami debitor qarzdorlikning 64,5 foiz), Karmana tumani 2 502 704,6 mln. soʻm (viloyat boʻyicha jami debitor qarzdorlikning 33,7 foiz), Navbahor tumaniga 72 451,0 mln. soʻm (1,0 foiz) toʻgʻri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Xatirchi tumani 47 451,4 mln. soʻm (0,6 foiz) Qiziltepa tumani 15 971,7 mln. soʻm (0,2 foiz), Gozgon shahri 3 163,5 mln. soʻm (0,04 foiz) Konimex tumani 255,9 mln. soʻm (0,003 foiz) va Zarafshon shahri 211,2 mln. soʻm (0,003 foiz) ga pastligini koʻrish mumkin.

2021-yil 1-dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha muddati oʻtgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln.soʻm	undan:			Muddati oʻtgan qarzdor- likning ulushi, % da
		xaridor va buyurtma- chilar	etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy	
Jami	161 645,0	152 382,4	657,4	64,8	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	156 412,5	147 229,5	592,9	64,8	96,8
Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash	2 956,4	2956,4	-	-	1,8
Qurilish	226,8	214,8	-	-	0,2
Tashish va saqlash	702,7	635,1	64,5	-	0,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 346,6	1 346,6	-	-	0,8

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xoʻjalik korxonalar, fermer va dehqon xoʻjaliklari, sugʻurta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021-yil 1-dekabr holatiga jami debitor qarzdorligi 6 249 459,4 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 84,1 foizini tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “Navoiy KMK” DK 3 717 776,1 mln. so‘m (59,5 foiz), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 1 695 001,5 mln. so‘m (27,1 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 550 694,0 mln. so‘m (8,8 foiz).

Debitor qarzdorlik “O‘zkimyosanoat” AJ – 3,4 foizga, (212 645,0 mln. so‘m), “Hududgazta‘minot”AJ – 0,7 foizga (42 017,9 mln. so‘m), “O‘zdonmahsulot” AJ – 0,3 foizga (19 160,4 mln. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 0,2 foizga (9875,2 mln. so‘m) kamaygan.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni 2020-yil 1-dekabrga nisbatan solishtirganimizda 9,6 foizga kamaygan.

2021-yil 1-dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 4 408 506,5 mln. so‘m, undan muddati o‘tgan – 54 573,9 mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,2 foizni tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikni 2020-yil 1-dekabrga nisbatan solishtirganimizda 90,3 foizga kamaygan bo‘lsa, jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 16,1 foizga kamaygan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021-yil 1-dekabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 3 443 238,7 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 78,1 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o‘tgan – 48 667,4 mln. so‘m yoki mos ravishda 91,3 foizga kamaygan.

2021-yil 1-dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	<i>Jami, mln. so‘m</i>	<i>undan:</i>				<i>Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, % da</i>
		<i>etkazib beruvchilar va pudrat-chilarga</i>	<i>byudjetga to‘lovlar</i>	<i>davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
Jami	54 573,9	54 573,9	-	-	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	54 570,4	54 570,4	-	-	-	100,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3,5	3,5	-	-	-	-

2021-yil 1-dekabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 3 026 642,3 mln. so‘mni tashkil qildi.

**Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor
qarzdorlikning debitorlikka nisbatan kamayishi**

	<i>Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi</i>	
	<i>mln. so‘m</i>	<i>debitorga nisbatan, % da</i>
“Navoiy KMK” DK	1 804 088,1	51,5
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	1 525 739,2	10,0
“O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi” AJ	219 740,3	67,4
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	72 100,4	86,9
“Hududgazta‘minot” AK	15 368,8	63,4
“O‘zdonmahsulot” AK	12 909,1	32,6

Jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi “Navoiy KMK” DK 1 804 088,1 mln. so‘mga (51,5 foiz), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 1 525 739,2 mln. so‘mga (10,0 m.), “O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi” – 219 740,3 mln. so‘mga (67,4 m.), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 72 100,4 mln. so‘mga (86,9 foiz), “Hududgazta‘minot” AK – 15 368,8 mln. so‘mga (63,4 m.), “O‘zdonmahsulot”AK– 12 909,1 mln. so‘mga (32,6 m.),

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 1 768 579,0 mln. so‘m (29,3 foiz), Navoiy shahri 1 267 357,3 mln. so‘m (73,6 foiz), Navbahor tumani 9 528,4 mln. so‘m (86,8 foiz), va Konimex tumani 70,8 mln. so‘m (72,3 m.) ga to‘g‘ri keldi.